

GRAFIK DIZAYN LOYIHALASH JARAYONINI OPTIMALLASHTIRISHDA GEOMETRIK SHAKLLARNING O'RNI

Ma'rufov F.O.

*Toshkent davlat texnika universiteti
"Sanoat dizayni" kafedrası vvb.dotsenti
(ORCID 0009-0005-7361-9802)*

Annotatsiya. Grafik dizayn loyihalash jarayonida geometrik shakllardan foydalanish dizayn samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Ushbu tezisda raqamli grafik muhiti sharoitida geometrik shakllarning dizayn yaratish jarayonini optimallashtirishdagi roli tahlil qilinadi. Grafik dasturlar vositasida tayyor shakllardan foydalanishning amaliy imkoniyatlari, ularning ko'rsatgichlarini o'zgartirish hamda murakkab kompozitsiyalarni tez va aniq yaratish jarayoniga ta'siri yoritiladi.

Kalit so'zlar: "CorelDraw", grafik dizayn, tayyor geometrik shakllar, dizayn loyihalash, kompozitsiya, optimallashtirish.

KIRISH

Zamonaviy raqamli texnologiyalarning rivojlanishi, grafik dizayn sohasida loyihalash jarayonini takomillashtirish va samaradorligini oshirishda katta ahamiyat kasb etmoqda. Grafik dizayn yo'nalishida vizual tasvirlarni yaratishda geometrik shakllar asosiy konstruktiv elementlardan biri hisoblanadi. Ular kompozitsiya tuzish, obyektlarning strukturaviy asosini shakllantirish hamda vizual ifodaning aniqqligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Raqamli grafik dasturlaridagi mavjud tayyor geometrik shakllardan foydalanish dizayn jarayonini soddalashtirish, loyihalashga sarflanadigan vaqtni kamaytirish va murakkab kompozitsiyalarni samarali yaratish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, grafik dizayn loyihalash jarayonini optimallashtirishda geometrik shakllarning o'rni va ularning amaliy qo'llanilish imkoniyatlarini o'rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

"CorelDraw" dasturidagi tayyor geometrik shakllardan foydalanish dizaynerga obyekt ko'rsatgichlarini tezkor o'zgartirish, shakl o'lchamlari va nisbatlarini boshqarish hamda kompozitsiyani qisqa vaqt ichida shakllantirish imkonini beradi. Bunday yondashuv loyihalash jarayonida ortiqcha amallar sonini kamaytirib, ish unumdorligini oshiradi.

ASOSIY QISM

Tadqiqot natijalari grafik dizayn loyihalash jarayonida "CorelDraw" dasturidagi tayyor geometrik shakllarni yaratuvchi uskunalaridan foydalanish dizayn samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ko'rsatadi:

- “Rectangle” – bu uskuna yordamida to‘g‘ri to‘rtburchak shakli chiziladi. Yaratilgan shaklning ko‘rsatkichlari “Property Bar” panelida aks ettiriladi hamda sozlanadi.

- “Ellipse” – ushbu uskuna uskunalar panelidagi ellips shakli tasvirlangan tugmada joylashgan bo‘lib, ellips shaklini yaratadi.

- “Polygon” – uskuna uskunalar panelidagi oltiburchak tasvirlangan tugmada joylashgan bo‘lib, ko‘pburchak shaklini yaratadi.

- “Star” – bu uskuna yordamida yulduz shakli yaratiladi.

- “Common Shapes” – namunadagi mavjud shakllarni yaratuvchi uskuna. Uskunasi yordamida chiziladigan tayyor shakllarning namunalari xususiyatlar panelida mavjud bo‘ladi.

Dasturdagi tayyor geometrik shakllardan foydalanish vizual obyektlarni yaratish jarayonini tezlashtiradi, aniqlikni oshiradi hamda loyihalash jarayonini optimallashtirishga yordam beradi. Mazkur yondashuv grafik dizayn amaliyotida hamda dizayn yo‘nalishida ta’lim olayotgan talabalarni tayyorlash jarayonida samarali metodik vosita sifatida qo‘llanilishi mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, grafik dizayn loyihalash jarayonida “CorelDraw” dasturidagi mavjud tayyor geometrik shakllardan foydalanish dizaynni yaratishda muhim vositalardan biri hisoblanadi. Ular yordamida dizayn jarayonini soddalashtirish, vizual ifodaning aniqligini oshirish hamda ish samaradorligini ta’minlash mumkin. Geometrik shakllardan foydalanish dizayn loyihalash jarayonini optimallashtirishga xizmat qiluvchi samarali usullardan biri bo‘lib, zamonaviy grafik dizayn amaliyotida keng qo‘llash imkoniyatiga ega.

ADABIYOTLAR:

1. Rixsiboyev T, Rixsiboyeva X, Tursunov S, Alimov F, Hodjayeva U. “Kompyuter grafikasi”. “Tafakkur qanoti” nashriyoti Toshkent-2018.

2. Malikov K.G. “Muhandislik kompyuter grafikasi” fanidan ma’ruzalar matni to‘plami. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Toshkent-2019.

3. Исроилов Ж. Б., Мирзаев Ж. И. ВЕКТОРНЫЙ ГРАФИЧЕСКИЙ РЕДАКТОР CORELDRAW X6 //Теория и практика современной науки. – 2016. – №. 6-1 (12). – С. 520-527.

4. Gumber S. Minimalism in design: A trend of simplicity in complexity //Journal of Visual and Performing Arts. – 2023. – T. 4. – №. 2. – С. 357-365.

5. Shahnoza Q. COREL DRAW DASTURIDA MATNLAR VA JADVALLAR BILAN ISHLASH //Introduction of new innovative technologies in education of pedagogy and psychology. – 2025. – T. 2. – №. 6. – С. 89-94.

6. Abdurashidxonova M. B. YOG‘OCH O‘YMAKORLIGI SAN’ATINI ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR BILAN UYG‘UNLASHTIRISH //Inter education & global study. – 2025. – №. 1 (1). – C. 300-311.
7. https://rghpu.ru/uploads/catalogfiles/8212_28-marufov.pdf
8. <https://pedagogs.uz/index.php/ped/article/view/1266>
9. <https://zenodo.org/records/14785636>
10. <https://kedu.ru/press-center/articles/info-geometriya-graficheskogo-dizayna/>